

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**



**“ZAMONAVIY TARIX FANI
METODOLOGIYASINING
DOLZARB MUAMMOLARI”**

**mavzusidagi
RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYA**

MATERIALLARI

(2021-yil 24-mart)



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
TARIX FAKULTETI
TARIX O‘QITISH METODIKASI KAFEDRASI**

**ZAMONAVIY TARIX FANI METODOLOGIYASINING
DOLZARB MUAMMOLARI**

mavzusidagi

Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari

2021-yil 24-mart

NAVOIY-2021

Ўзбекистоннинг Хорижий мамлакатларга эшиттиришлар радиоси республика ҳаёти ҳақидаги маълумотларни чет элга тарғиб этувчи асосий ахборот манбаларидан бири ҳисобланганлиги боис, унинг дастурларига бўлган қизиқиш даражаси кейинги йилларда сезиларли равишда кўтарилди. Радиотингловчилардан келаётган мактублар шундан далолат беради. Радиотингловчилар билан хат орқали алоқаларни ривожлантириш борасида хатлар ва тингловчилар фикрини ўрганиш бўлими ходимлари муайян ишларни амалга ошириди. Дирекция 1996 йилда дунёнинг 70 га яқин мамлакатдан жами 4,5 мингдан зиёд хат олди. Шуниси диққатга сазоворки, тингловчилардан келган мактубларнинг бирортаси ҳам жавобсиз қолгани йўқ. Ушбу хатларнинг аксариятида хорижий мухлисларнинг республиканинг ички ва ташқи сиёсати масалаларига ўзларининг муносабатларини, у ёки бу ҳодиса юзасидан фикр-мулоҳазаларини баён этганлар[11:7].

Тошкент радиоси тингловчиларидан келаётган мактублар шундан далолат берадики, Ўзбекистоннинг хорижий мамлакатларга эшиттиришлар радиоси дастурлари республикамизда амалга оширилаётган сиёсий ислохотлар, демократлаштириш жараёнининг чуқурлашуви ҳақидаги жамоатчилик фикрига асос солишда муҳим аҳамият касб этаётир. Шунингдек, хорижлик дўстларимизнинг давлатимиз ва халқимиз эришган ютуқлар ҳақида самимият билан фикр билдиришлари, уларнинг эзгу тилаклари ҳаммамизнинг кўнглимизни тоғдек кўтаради. Тошкент радиоси ва хорижий тингловчилар тимсолида Ўзбекистон Республикаси ва дунё мамлакатлари ўртасидаги дўстлик алоқаларни бундан буён ҳам самарали ривожланаверади.

Тошкент халқаро Радиосининг Европа мамлакатлари, Жанубий ва Жанубий-Шарқий Осиё мамлакатлари учун инглиз тилида, Германия, Австрия ва Швейцария мамлакатлари учун немис тилида тайёрлаётган эшиттиришларнинг тингловчилари кундан-кунга кўпайиб бормоқда.

Ҳинд, урду, хитой, уйғур тилларида ахборот-мусикий дастурлар Ҳиндистон, Покистон, Хитойда аллақачон мухлисларини топган. Радио араб мамлакатлари, Эрон, Афғонистон, Яқин на Ўрта Шарқ мамлакатларига Ўзбекистоннинг бугунги иқтисодий ва маданий тараққиёти ҳақида араб, форс, дари, пушту тилларида эшитиришлар бермоқда[12:7]. Тошкент халқаро радиоси дастурларида Ўзбекистоннинг Хорижий давлатлари билан дўстлик ва ҳамкорлик алоҳида етакчи мавзу ҳисобланади. Давлат раҳбарларининг Ўзбекистонга ташрифи, музокаралар, икки томонлама манфаатли ҳамкорлик ҳақида имзоланаётган ҳужжатлар, уларнинг моҳияти ва мазмуни журналистлар тайёрлаган ахборот, таҳлилий шарҳ ва репортажларда хорижлик тингловчиларга тезкорлик билан етказилмоқда. Ўзбекистонда хорижий тадбиркорлар билан барпо этилган кўплаб қўшма корхоналар фаолияти ҳам дастурдан кенг ўрин олмақда. Хорижлик ишбилармонлар эфир орқали чиқишларида Ўзбекистонда эркин тадбиркорлик қилиш, корхона ва турли лойиҳаларга инвестиция киритиш учун ҳуқуқий кафолатлар мавжудлиги ҳақида мамнуният билан гапирмоқдалар.

“Ватандош” таҳририяти хорижий мамлакатлардаги ўзбекларга дастлабки эшиттиришларини 1961 йилнинг 1 августидан бошлаган эди. Унинг таъсисчиси ўша вақтлар фаолият олиб борган “Ватан” жамияти ва Ўзбекистон Давлат телевидение ва радиоэшиттириш комитети эди.Йиллар ўтган сайин “Ватандош” таҳририятининг нуфузи ҳам ошиб борди. 1961 йилди ҳафтасига икки маротаба ярим соатдан дастур тайёрлаган бўлса, 2004 йилда бу кўрсаткич икки соату қирқ дақиқани ташкил қилмоқда. Шунини алоҳида таъкидлаш ўринлики, “Ватандош” радиосининг иш услуби ўзига хос, табиий, бошқа таҳририятлардан фарқ қилади. Эшиттиришларнинг тили содда, равон, доимо ўзбекона руҳ уфуриб туради [13:21].

Хорижий мамлакатларга радиоэшиттиришларнинг асосий мақсади нималардан иборат? Энг аввало, хорижий мамлакатлар билан дўстлик ва ҳамкорликнинг янги қирралари шаклланиб бораётганлигини, Ўзбекистоннинг халқаро сиёсий, иқтисодий ва ижтимоий алоқалари равнақ топаётганлигини эшиттиришлар орқали тингловчиларга баён этиш асосий мақсадимиздир. Радиоэшиттиришларда Ўзбекистондаги чет эл мамлакатлари элчихоналари ва консулхоналарининг фаолияти, илмий ва маданий алоқалар, сайёҳлар айирбошлаш масаласи ҳам ёритилади. Эшиттиришлар Ўзбекистон ва бир қатор хорижий мамлакатларда истиқомат қилувчи халқларнинг диний, маданий муштараклиги, миллий урф-одатлар, анъаналарнинг ўхшашлиги тарихан шаклланган омиллар ҳисобга олинган ҳолда берилади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати.

- 1.Абдурахмонов М. Отамуродов С. Маънавий салоҳият Т.; 2009 –Б.51.
- 2.Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг ” Миллатлараро муносабатлар ва хорижий мамлакатлар билан дўстлик алоқаларини янада такомиллаштиришчора тадбирлари тўғрисида”ги Фармони Т.: 2017 йил 9-май.
- 3.Жуманиёз Жабборор. Миллионлар минбари // Мухбир. – Тошкент, 1977. - №5. – Б.4.
- 4.Фарғона вилояти телерадиокомпанияси жорий архивидан
- 5.Махамметов, Ш.Атамуратова. Телевидение ва радиорежиссуараси.Т.:Нисо полиграф,2017 –Б.9.
- 6.Тошкент телелердиокомпанияси жорий архивидан.
- 7.Усмонов С. Тинчлик ва дўстлик овози // Ўзбекистон матбуоти. – 1994. - №6. – Б.12-13.
- 8.Ҳамид А. Ҳамжихатлик мевалари // Ўзбекистон матбуоти. – 1994. - №2. – Б.44-45.

9. Фуломов Ш. Бизни жаҳон тингламоқда // Ўзбекистон матбуоти. – 1997. - №4. – Б.6-7.
10. Фуломов Ш. Бизни жаҳон тингламоқда // Ўзбекистон матбуоти. – 1997. - №4. – Б.6-7.
11. Фуломов Ш. Бизни жаҳон тингламоқда // Ўзбекистон матбуоти. – 1997. - №4. – Б.6-7.
12. Фуломов Ш. Эшиттиришлар 12 тилда // Ўзбекистон матбуоти. – 2003. - №6. – Б.10-11.
13. Исмоилова И. “Ватандош” эшиттиришларини тинглаб // Ўзбекистон матбуоти. – 2001. - №6. – Б.20-21.

TARIX DARSLARIDA MUTAFAKKIRLARNING MA’NAVIY MEROSLARIDAN FOYDALANISH

**O‘tayeve F.X. – BuxDU, Buxoro tarixi kafedrası katta o‘qituvchi
Qurbonov M.A.- BuxDU, Tarix va madaniy meros fakulteti iqtidorli talaba**

Annotatsiya

Bu maqolada, Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘qitishda zamonaviy ta’limning metodlaridan biri bu mutafakkirlarning ma’naviy meroslaridan foydalanish davr talabi asosida yoritilgan va tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: ma’naviy meros, zamonaviy tarix, komil inson, inson ma’naviyati, ilmiy kitoblar, milliylik

Har bir xalq, har bir millatning o‘ziga xos urf-odatları, ma’daniyati va tarixi bor. Shaxsiy manfaatini mamlakat va xalq manfaatı bilan uyg‘un holda ko‘radigan vatanga va elga sodıqlıknı, mehnatsevarlıknı, diyonatlıknı va boshqa ijobiy fazılatlarnı aynan komil insonga xos fazılatlarnı tarıx darslarıda talabalar ongıga singdırısh alohıda ahamıyatga ega. Jumladan, buyuk mutafakkırlarning bizgacha yetib kelgan ma’naviy meroslari asosiy manbalardan hisoblanadi.

Imom al-Buxoriy (810-870) hadislarıda inson ma’naviyati shakllanishi to‘g‘risida ko‘plab ibratlı, chuqur ma’noli fikrlar mujassamlashgan. Jumladan, insonlarga yordam beradigan insonlarnı axloqan barkamoldırlar, sog‘lom inson tarbiyasi hamma zamonlarda ham muhim ahamıyat kasb etgan. Komil inson-bu yuksak fazılatlarga ega qalbi pok, fikri toza, sadoqatlı insondir, deydi buyuk alloma o‘z asarlarıda.

Abu Nasr Farobiy (873-950) bilimdon, ma’rifatlı yetuk inson timsolini tasvırlar ekan; bunday deydi: har kimki ilm- hikmatni o‘rganmoqchi bo‘lsa, uni yoshlıkdan boshlasın, sog‘-salomatlıgi yaxshi bo‘lsın, so‘zining ustidan chiqsın, yomon ishlardan saqlansın, barcha qonun -qoidalarnı bilsın, bilimdon va notiq bo‘lsın, ilmi va dono kishılarnı hurmat qilsın, ilm va ahli ilmdan mol-dunyosını ayamasin, barcha real moddiy narsalar to‘g‘risida bilimga ega bo‘lsın” deya alohıda uqdiradi.

Alloma Abu Ali Ibn Sino (980-1037) “Tadbir-al manozil” asarıda “harakatdagi tanag davvo kerak emas” deb aytgan. Ta’lim va tarbiya masalalarıga jiddiy va ijodiy yondoshgan. Allomaning bola tarbiyalash va o‘qıtısh haqıda ko‘p fikrlari o‘zining chuqurlıgi, insonparvarlıgi va teranlıgi bilan kishını hayratda qoldıradi. Kimga qanday pandu nasihat qilsang unga avvalo o‘zing amal qil – deydi. Ibn Sino komil inson tarbiyasıda o‘qıtuvchining rolıga katta e’tıbor qaratgan. O‘qıtuvchi rostgo‘y, ozoda kiyınadigan, xushmomıla bo‘lishi zarurlıgını uqdiradi.

Yusuf Xos Hojib (1020) ”Qutadg‘u – bilik” (baxtga saodatga eltuvchi bilim) asarıda insonning ulug‘lıgi aql idroki, so‘zlash qobiliyati, bilimi, uquvi, hunarga egalıgidır deb ta’kidlaydi. Har bir kishi jamiyatga munosib bo‘lib kamol topmog‘i kerak. Farzandlar tarbiyasi nihoyatda erta boshlanmog‘i shart, shundagina ularning noo‘rin hatti harakatlarga berilishning oldi olinadi. Buning uchun maxsus tayyorlangan tayyorgarlıkka ega bo‘lgan ezgu niyatlı va pokiza murabbiy taklif etilishi kerak, shundagina bolalarımız tog‘ri tarbiya oladi degan fikrlarnı bildirib o‘tgan.[1:40]

Ma’lumki, tassavvuf olamıda insonning ma’naviy kamolati bayon qilinadi. Abdulkholiq G‘ijduvoniniy (1103-XII asrning 2 yarmi) “Hojagon” ta’limotıda odob axloq me’yorlarını ishlab chiqqan”. Odobi tariqati” risolasıda “Ey o‘gilcham senga nasihat qilib aytamanki, ilm, axloq-odob, halollik va poklıkka harakat qil, dunyoparast bo‘lma”. Mehr –oqibat, tashqi va ichki go‘zallıq haqidagi pand-nasihatları ham shaxs tarbiyasining o‘ziga xos me’yoriy ko‘rsatkıchlari sıfatıda komil inson tarbiyasıda ahamıyatlıdır.

Husayn Voiz Koshifiy (1440-1505) ning o‘qıtuvchılarga bolalarnı tarbiyalashda quydagi usullardan foydalanishni ilgari surgan: nasihat tanbeh berish, amru-farmon, majburiyat qo‘yishdır. Ta’lim, tarbiya berishda ustozni ulug‘lab shunday yozadi: Uztozdan olgan pandu nasihatga quloq solmay behuda yo‘llarda yurgan farzand o‘zını o‘zi rasvo qiladi deb nasihat qiladi.

Sohibqiron Amir Temur (1336-1405) davlat tarixıda ilm - fan bajaradigan xızmat ustun turishını bilgan edi. Insonning kamol topishıga ta’sir etadigan omıllardan biri uning bilim olishi deb tushungan. Amir Temur Samarqndda ilm fan va ma’rifatning gullab yashnashi uchun shaharga turli mamlakatlardan olimlar, hunarmandlar, quruvchılar, muhandislar yig‘gan. Shaharda fanlar akademiyasını ochib davlatni har tomonlama rivojlantırish uchun ulkan ishlar qilgan. Bilimli insonlarnı jamiyatning gullab yashnashi uchun yoshlarning ta’lim tarbiya olishıda katta dasturul amal bo‘luvchi tajriba ekanlıgını yaxshi tushungan. Buni yana mazmunlıroq bayon qilish maqsadıda ayniqsa ma’rifatparvarlarnı ishsız bo‘sh qoldırmaslıknı nazarda tutib: “agar kasbu hunar va ma’rifat ahllarıda bo‘lsa bundaylarga saltanat, korxonalaridan yumush berilsın”, deb mamlakardagi o‘qısh

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
TARIX FAKULTETI
TARIX O‘QITISH METODIKASI KAFEDRASI**

**ZAMONAVIY TARIX FANI METODOLOGIYASINING
DOLZARB MUAMMOLARI**

mavzusidagi

Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari

2021-yil 24-mart

NAVOIY-2021